

Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – Ipoteka Bankka kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit ajratish

Davlat:

O'zbekistan

Loyiha tartib raqami:

49313

Biznes faoliyat turi:

Moliyaviy muassasa

E'lon turi:

Xususiy

Ekologik tasnifi:

Moliyaviy muassasa

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:

16 noyabr, 2017 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi:

Loyihaning kontsepsiyasi ko'rib chiqilgan

Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha xulosa chop etilgan sana:

12 oktyabr, 2017 yil

Loyiha mazmuni

Ipoteka Bank (IB) aksiyadorlik jamiyatiga 25 million AQSH dollari miqdorida kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit liniyasi va savdoni moliyalashtirish maqsadida 5 million AQSH dollariga teng Savdoni Moliyalashtirish Limiti beriladi.

Loyiha maqsadi

Kichik biznesni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan kredit IB tomonidan O'zbekistondagi kichik biznes vakillarining o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan talablarini qondirish uchun yo'naltiriladi. Shuningdek, loyiha bankning kichik biznesga ajratilgan kredit portfelining o'sishi va Toshkentdan tashqaridagi hududlarda faoliyat yurituvchi yangi mijozlarni ham qamrab olish imkonini beradi. Loyiha mamlakat kichik biznes vakillarining

moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining oshirilishi orqali iqtisodiyotning real sektoridagi raqobatni yanada kuchayishiga olib keladi. Savdoni moliyalashtirish uchun beriluvchi limit bank tomonidan chiqarilgan akkreditiv va boshqa savdoni moliyalashtirish instrumentlariga tasdiqlovchi banklardan tijoriy shartlar asosida tasdiq olish imkonini yaratadi. Ushbu loyiha mintaqaviy aloqalar va integratsiyani kuchaytirish orqali mintaqaviy savdoning kengayishiga olib keladi.

O'tish davri ta'siri

Loyiha o'z oldiga quyidagi maqsadlarni olgan (i) kichik va xususiy biznesni moliyalashtirish uchun mablag'lar mavjudligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish, va (ii) Kichik biznesni kreditlash jarayoni bo'yicha strategiya, moliyaviy mahsulotlar, jarayonlar va marketing sohasida innovatsiyani qo'llash orqali moliyaviy muassasalarni yanada kuchaytirish. Bankda kreditni tahlil qilish va baholash amaliyotlari talabga javob beradigan darajada ekanligiga ishonch hosil qilish orqali, Loyiha maxsus texnik ko'mak orqali barqaror moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlovchi qat'iy kreditlash amaliyotlarini yo'lga qo'yishni rag'batlantiriladi.

Shuningdek, Savdoni moliyalashtirish limitining belgilanishi orqali Loyiha YTTB faoliyat yurituvchi mamlakatlar o'rtasida savdo integratsiyasini yanada kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishiga moliyaviy muassasalarning siyosiy va tijoriy to'lov riskini qoplash uchun akkreditivlar yoki kredit liniyalarini yo'lga qo'yish orqali erishadi.

Mijoz haqida ma'lumot

IPOTEKA-BANK AJ

IPOTEKA-BANK AKSIYODAROLIK JAMIYATI

Ipoteka Bank O'zbekistondagi yetakchi moliyaviy muassasalardan biri bo'lib, 2016 yilning yakuniga ko'ra aktivlar bo'yicha 4 chi va kredit portfeli bo'yicha 5 chi o'rinni egallagan. Bank o'zining 38 ta filiali va 700 dan ortiq xizmat ko'rsatish shahobchalari orqali keng qamrovli tijorat bank xizmatlarini mamlakat miqyosida taklif etadi. IB ko'p sonli aksiyadorlarga ega bo'lib, eng katta aksiyodori qatorida "O'zneftmahsulot" va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligini ko'rish mumkin.

YTTB ning Ipoteka bankka ajratiluvchi moliyaviy mablag'i

USD 25,000,000.00

Loyihaning umumiy qiymati

USD 25,000,000.00

Ekologik xulosa

Bank (2014 yilda qabul qilingan Ekologik va ijtimoiy nizomga asosan) moliyaviy muassasa sifatida tasniflanadi. IB da Kadrlar bilan ishlash siyosati mavjud va Kasbiy sog'liq va

ehtiyotkorlik choralari amaliyotlari YTTB ning Faoliyat yuritish uchun qo'yiluvchi talablar nizomiga (Performance Requirements), ya'ni PR2 va PR4ga javob beradi. Shuningdek, IB da Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha siyosat ham mavjud bo'lib, unda majburiy yoki bolalar mehnatini o'z ichiga olgan faoliyat turlarini moliyalashtirish ma'n etilgan hamda bank investitsiyalari bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy masalalar yuzasidan murojaat qilish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. IB da Ekologik va ijtimoiy masalalarni boshqarish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu tizim YTTB tomonidan berilgan mablag'larga nisbatan ham qo'llanilishi shart. IB YTTB mablag'lari orqali moliyalashtirishni amalga oshirayotganida PR9 talablariga, ya'ni har ikki tomon roziligini bergan Siyosat Bayonoti hujjatida ko'rsatib o'tilgan YTTBning ekologik va ijtimoiy yo'nalishda moliyalashtirilishi ma'n etilgan faoliyat turlari ro'yxatiga amal qilishi kerak. IB YTTB kredit liniyasi bilan ishlovchi xodimlarini YTTBning Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha elektron trening kurslaridan o'tishini ta'minlashi kerak. IB YTTBning PR2, PR4 va PR9 talablariga javob berishi va Barqarorlik ko'rsatkichlari orqali YTTBga Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha hisobotlarni har yili topshirishi kerak.

Texnik Ko'mak

Bankka "O'zbekistondagi moliyaviy vositachi muassasalarning salohiyatini oshirish" dasturi doirasida texnik ko'mak ko'rsatiladi. Bank, shuningdek "Markaziy osiyo uchun mintaqaviy kichik biznes dasturi" hamda Savdoni moliyalashtirish dasturi doirasida texnik ko'makdan foydalanadi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

info@ipotekabank.uz

+998 71 150 89 61

+998 71 150 67 97

<http://www.ipotekabank.uz>

Shahrisabz ko'chasi 30 uy, Toshkent shahri, O'zbekiston, 100000

Biznes hamkorligi

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektori loyihalari uchun [EBRD Procurement](#) ga murojaat qiling: Tel: +44 20 7338 6794

Elektron manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy so'rovlar

Ta'minot masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun:

Tel: +44 20 7338 7168

Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Ma'lumotlarni oshkor etish

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi

[Project Complaint Mechanism](#) (PCM), ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlar bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun [Project Complaint Mechanism](#) sahifasiga tashrib buyuring. Sizning shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlashga mas'ul mutaxassis (pcm@ebrd.com) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq ([PCM Rules of Procedure](#)) javob beradi.